

MAKTABGACHA YOSH DAVRIDAGI BOLALARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

ADPI MT 103- guruh talabasi Nazarova Dilfuza

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yosh davridagi bolalarning psixologik xususiyatlari, ularning psixologik rivojlanishida ijtimoiy muhitning o’rni haqida fikr va mulohazalar bayon qilingan.

Kalit so’zlar: oila, muhit, tarbiya, psixologiya, maktabgacha yosh, ta’lim muassasida, “men” tushunchasi, ijtimoiy muhit.

O’zbekiston mustaqillikka erishgandan so’ng jamiyatning a’zosi bo’lgan har bir inson shaxsiga alohida etibor qaratildi. Ayniqsa ta’lim va tarbiya sohasiga juda ko’plab o’zgarishlar kiritildi. Muxtaram prezidentimiz SH.M Mirziyoyev takidlaganidek, yurtni, mamlakatni buyuk qiladigan kuch ilm-fan, ta’lim va tarbiyadir. Shunday ekan, ma’sul shaxslar kelajak avlodlarni har tomonlama ilmi va bilimli, tarbiyali qilib ta’lim va tarbiya berishi darkor.

Kelajagi buyuk davlatni qurush uchun inson, avvalo oilada, so’ng maktabgacha ta’lim muassasida mukammal tarbiyalanishi, shaxs sifatida barcha imkoniyatlarga ega bo’lishi zarur.

Oila-bu bolaning “men” ni shakllantiruvchi muhim ijtimoiy muhit hisoblanadi. Bola oilada ijtimoylashib ilk bor maktabgacha ta’lim muassasiga qadam qo’yadi. Maktabgacha ta’lim muassasi ta’lim maskanlarining poydevori hisoblanadi. Inson shaxsining psixologik tomonlarini shakllantiruvchi va uning emotsional-hissiy rivojlanish bosqichlari ontagenosning dastlabki bosqichlariga to’g’ri keladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi ilmida bolalar rivojlanishi o’zgarishi tezlashib borishi sababli bu davrni 3-bosqichga davrlab tarbiyalash joiz.

Kichik maktabgacha davr – (3-4) yosh

O’rta maktabgacha davr - (4-5) yosh

Katta martabgacha yosh - (6-7) yosh

Asosan mana shu davrlardan boshlab bolaning mustaqil faoliyati kuchaya boshlaydi. Bolaning faoliyatdagi mustaqilligi tafakkur qilishga, yani tafakkurini mustaxkamlanishiga olib keladi, bundan tashqari maktabgacha yoshdagi bosqichlarda bolaning mukammal harakatlari takomillashib , gigiyena qoidalarini bilishi, madaniy va jismoniy mehnat malakalarini anglashi, nutqining o’sishi hamda ijtimoiy, ma’naviy, estetik tafakkurlar o’sa boshlaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning yetakchi faoliyati asosan o’yin hisoblanadi. O’yin orqali ta’lim olish bolalarni ta’lim olishi va rivojlanishining yondashuvlaridan biridir. O’yin-bu bolani o’zini va atrofdagi dunyoni anglashida yordam beruvchi usuldir. O’yinda bolalarning tengdoshlari va pedagogi bilan o’zaro munosabati nutq va ijtimoiy ko’nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi matorikasi ham takomillashib boradi. O’yin boshqa bolalar bilan birgalikda ta’lim olish imkoniyatini ham yaratadi, ularga tavakkal qilish va qiyinchiliklarni engish imkonini beradi, bolalar tasavvurini ijdkorligini rivojlantiradi.

O’yin har hil bo’lishi mumkin- ta’limiy o’yin, qoidali o’yin, didaktik o’yin, harakatli o’yin, syujetli-rolli ya’ni ijodiy o’yin, erkin faoliyatli o’yin.

O’yin doimo o’zgarib turganligi sababli bola o’ynab charchamaydi va zerikmaydi. O’yin jarayonida bolaning faol ishtiroki psixik rivojlanishi uchun ahamiyati shundaki, bolaning turli sifat va hislatlari o’yin jarayonida namoyon bo’ladi, bunda bolaning sifat va hislatlari mustahkamlanib rivojlanib boradi. SHuning uchun o’yin faoliyati psixologik jihatdan to’g’ri tashkil qilingan. O’yin bola shaxsini har tomonlama o’stiradi va bolaning barcha psixik jarayonlarida yani- sezish, idrok qilish, diqqat, xotira,xayol,tafakkur va irodani ham

rivojlanishiga yordam beradi. Bolalar syujetli – rolli o`yinda ko`proq kattalarga taqlid qilib ijtimoiy hayotdagi rollarga kirishib kattalar qilgan borayotgan munosabatlarni shakllantirib boradi. Bola bunda hayoti va ko`z o`ngida ro`y berayotgan voqea va hodisalarni kuzatuvchisi va ishtirokchisiga aylanib faol qiziquvchanligi sababli anglab o`zlashtirib boradi. Maktabgacha yoshdagi bolalar kattalar hayotini hamma tomonlarini o`z o`yinlarida aks ettira oladilar. O`yin bolaning har bir bosqich yoshida atrofdagi voqealarni , kishilar o`rtasidagi munosabatlarini dunyoni anglashi va bilishini ifodalaydi. Bolaning nutqini, kishilarga va o`z o`ziga munosabatlarini o`zgarishini o`yin jarayonida o`z aksini topadi.

Bolalarga ta’lim tarbiya olish jarayonida, o`yin o`ynash imkoniyatini taminlash uchun rivojlantiruvchi va havfsizliklarini ta`minlovchi muhit, yetarli joy, vaqt va o`yin resurslari to`laqonli shart sharoitlar va albatta etuk tajribali malakali pedagoglar Maktabgacha ta’lim muassasalarining o`rni juda kata ahamiyatga ega.

Shuni aytish mumkinki, bolalar tarbiyasida doimo har bir shaxs ma`suliyatli bo`lib, bola tarbiyasi eng og`ir ijtimoiy vazifa ekanligini his qilishi, anglashi zarur. Kattalar na`muna bo`lib, yosh avlodni kelajakda yetuk va barkamol qilib voyaga yetkazishda ta`lim muassasalari bilan o`zaro hamkorlikda yondashish maqsadga muvofiq bo`ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Goziyev E. Tafakkur psixalogiyasi. T.”O`qituvchi” 1990
2. Uruntayeva G.A. Detiskaya psixalogiya – M : “Akademiya”,2010-c36
- 3.Davletshin M.G. Mavlonov M.M, To`ychiyeva S.M. ”Yosh va pedagogik psixalogiya”T.TDPU,2009
4. Ivanov I., Zufarova M. “Umumiy psixalogiya” E-HUQUQSHUNOS тизими.html
5. O`Gilxontolibjonovna, V. (2023). AXBOROT MUHITI YOSHLAR IJTIMOY NORMALARI SHAKLLANISHIGA TA`SIRINI TADQIQ ETISHNING METODIK JIHATLARI. Современное образование (Узбекистан), (11 (132)), 15-22.